

**TARBIYACHINING INNOVATSION VA KREATIV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani**

**ЦИФРОВИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**  
**ПЕДАГОГОВ-ВОСПИТАТЕЛЕЙ**  
Международная научно-практическая онлайн конференция

**DIGITALIZATION OF INNOVATIVE AND CREATIVE ACTIVITIES OF EDUCATORS**  
International scientific and practical online conference



**ANDIJON - 2022**



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAKTABGACHA TA`LIM FAKULTETI**

**MAKTABGACHA TA`LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**TARBIYACHINING INNOVATSION VA KREATIV  
FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**TO`PLAMI**

**Andijon – 2022**

258.	Ф.М.Топилова, Г.А.Юлдашева	Формирование и развитие цифровой компетентности при обучении биологии	542
259.	Кадилова Сурмахон	Бошланғич таълим ўқитувчиларининг педагогик психологик аспектилари	543
260.	Xodjayeva Saida	Maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat burchagidagi ishlarni tashkil qilish	545
261.	Obidova Nargiza	Ta'lim-tarbiya metodlarining mazmuni	546
262.	Qodirova Gulnora	Bo'lajak tarbiyachilarni kreativ yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish	548
263.	С.О.Рўзиматова	Жисмоний ривожланишда ҳаракатли ўйинларнинг ўрни	550
264.	Н.Б. Адилова	Тарбия масаласи мутафаккирлар талқинида	552
265.	Н.Б. Адилова	Тарбиянинг миллий ва умуминсоний кадриятлар камровида бўлиши	554
266.	А.Е. Sheraliyeva	Maktabgacha ta'limda didaktik vositalarning o'rni	556
267.	Д.Э.Камалова	Общая структура фонетики и фонологии	558
268.	F.Kiyikboyev, O.Tashmatova	Anvar Obidjon va o'zbek bolalar sh'eriysi	559
269.	Нажметдинова Нигора Иркиновна	Теоретические основы организации интегрированных музыкальных занятий в дошкольных образовательных организациях	562
270.	M.A.Teshaboyeva	Bola rivojlanishida oilaning o'rni	564
271.	B.T.Teshaboyeva	Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning zamonaviy asoslari	567
272.	A.Isroilov	Maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari	569
273.	X. Mirzayev	Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolada mehnat ko'nikmalarining shakllanish omillari	572
274.	Ro'zimatova Saidaxon Ozodbek qizi	Harakatli o'yinlar-maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanish omili sifatida	573
275.	Parmonova Sarvinoz Qobiljon qizi	Badiiy asarlarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	575
276.	Ilhom Qo'shaev	Milliy musiqa an'alaridan foydalanishning pedagogik masalalari	576
277.	I.F.Qayumov	O'zbek xalq cholg'ulari tarixidan	577
278.	И.И.Ахтамов	Мақом санъати таълимининг ҳозирги ҳолати	579
279.	Xasanova Nozimaxon Qo'chqarovna	Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanish konsepsiyasi	581
280.	Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	Maktabgacha ta'limda bolalarni axloqiy tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni	582
281.	U.R.Axunov G.A.Ne'matjonova	Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda o'yinlarning ahamiyati	584

258.	Ф.М.Тошилова, Г.А.Юлдашева	Формирование и развитие цифровой компетентности при обучении биологии	542
259.	Кадилова Сурмахон	Бошланғич таълим ўқитувчиларининг педагогик психологик аспекти	543
260.	Xodjayeva Saida	Мактабгача та'лим ташкилотда табият бurchagidagi ishlarni tashkil qilish	545
261.	Obidova Nargiza	Ta'lim-tarbiya metodlarining mazmuni	546
262.	Qodirova Gulnora	Bo'lajak tarbiyachilarni kreativ yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish	548
263.	С.О.Рўзиматова	Жисмоний ривожланишда ҳаракатли ўйинларнинг ўрни	550
264.	Н.Б. Адилова	Тарбия масаласи мутафаккирлар талқинида	552
265.	Н.Б. Адилова	Тарбиянинг миллий ва умуминсоний қадриятлар қамровида бўлиши	554
266.	А.Е. Sheraliyeva	Мактабгача та'лимда didaktik vositalarning o'rni	556
267.	Д.Э.Камалова	Общая структура фонетики и фонологии	558
268.	Ф.Кийикбойев, О.Ташматова	Anvar Obidjon va o'zbek bolalar sh'eriya ti	559
269.	Нажметдинова Нигора Иркиновна	Теоретические основы организации интегрированных музыкальных занятий в дошкольных образовательных организациях	562
270.	М.А. Teshaboyeva	Bola rivojlanishida oilaning o'rni	564
271.	В.Т. Teshaboyeva	Мактабгача та'лим муассасаларида та'лимни ташкил етишнинг zamonaviy asoslari	567
272.	A. Isroilov	Мактабгача та'лимда musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari	569
273.	X. Mirzayev	Мактабгача та'лим yoshidagi bolada mehnat ko'nikmalarining shakllanish omillari	572
274.	Ro'zimatova Saidaxon Ozodbek qizi	Harakatli o'yinlar-maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanish omili sifatida	573
275.	Parmonova Sarvinoz Qobiljon qizi	Badiiy asarlarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	575
276.	Ilhom Qo'shaev	Milliy musiqa an'analaridan foydalanishning pedagogik masalalari	576
277.	I.F. Qayumov	O'zbek xalq cholg'ulari tarixidan	577
278.	И.И.Ахтамов	Мақом санъати таълимининг ҳозирги ҳолати	579
279.	Xasanova Nozimaxon Qo'chqarovna	Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanish konsepsiyasi	581
280.	Saydullayeva Barchinoy Abdusalil qizi	Мактабгача та'лимда болаларни axloqiy tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni	582
281.	U.R. Axunov G.A. Ne'matjonova	Мактабгача yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda o'yinlarning ahamiyati	584

milliy musiqa merosi, uning an'analarini yosh avlodga yetkazishda xayrli ishlar qilishdi.

Bu borada akademik Yu.Rajabiyning "Shashmaqom"ni to'plab notaga olganligi borasidagi ulkan xizmatlari, ayniqsa alloma-san'atkor nashr ettirgan "Shashmaqom"ning olti tomliqi, "O'zbek xalq musiqasining" besh tomliqi, "O'zbek xalq qo'shiqlari to'plami, "Musiqqa merosimizga bir nazar" risolalari milliy musiqa merosi, an'analarini tiklanishi va targib etilishida bebaxo hissa qo'shdi.

XX asrning 70-80 yillarida ham musiqashunoslik fanida milliy musiqa va uning tarixini o'rganish an'analarini tiklash, nazariy asoslarini tadqiq etish borasida qator tadqiqotlar, ilmiy ishlar olib borildi. Bu o'rinda ayniqsa, musiqashunos professorlar F.Karomatov, O.Matyokubov, T.G'afurbekov, O.Ibrohimov, R. Abdullaev R.Yunusovlarning ilmiy ishlarini ta'kidlab o'tish o'rinli.

Musiqqa pedagogikasi fanida ham bu muammoning ko'pgina qirralari har tomonlama tadqiq etildi. Bu borada professorlar H.Nurmatov, A.Hasanov, Q.Mamirov, dotsentlar F.To'raev, va boshqa olimlar oliy va o'rta ta'lim tizimida milliy musiqa, uning an'analaridan o'quv-tarbiya jarayonlarida foydalanishning pedagogik masalalarini ishlab chiqishdi hamda amaliyotda tadqiq etish yo'llarini ko'rsatib berishdi.

Milliy musiqa an'analari, uni tiklash, o'quv-tarbiya jarayoniga tadqiq etib, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi dolzarb muammo ekanligini ta'kidlagan holda biz bu borada hali juda ko'p ilmiy izlanishlar olib boriladi va uning amaliy jihatlari kengroq tadqiq etiladi, deb o'ylaymiz.

Biz yuqorida zikr etilgan mualliflarning ishlari bilan tanishib, ularga asoslanib, "O'smir o'quvchilarni milliy musiqa an'analari bilan tanishtirish" mavzusi bitiruv malakaviy ishi sifatida tanlandi. Bu musiqa tarbiyasida muhim omil ekanligini e'tirof etish barobarida muayyan reja asosida bitiruv malakaviy ishimizni tayyorlashga harakat qildik.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiybyu "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 2018 yil 1 noyabrdagi PQ-3990-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xaqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O'zbekiston ovozi 2019-yil, 8- aprel. № 28-29 ( 32. 519).
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 14 maydagi qarori.
4. Eshqobil Shukur. "Xalq va tarix tili" . O'zbekiston ovozi 2019-yil, 8-aprel. № 28-29 (32. 519).
5. Karomatov (Karomatli) F.M. "Uzbekskaya dombrovaya muzika" T., 1962 g.
6. Turdiev T. Shajara. – Toshkent: Nur, 1991. – 64 b
- 7.B.Matyoqubov. Doston navolari. Toshkent, 2009 8. Tursunov S.N. va boshqalar. O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi ISBN 978-9943-4268-3-2 "Fan va texnologiya" 2014.

### O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI TARIXIDAN

I.F.Qayumov

BuxDU musiqa ta'limi kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbek xalq cholg'ularining tarixi qadimdan o'rganilib kelinganligi va IX-XVII asrlarda yashab o'tgan O'rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg'ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomini, mashhur musiqiy asarlar nomini uchratish mumkinligi, O'zbek an'anaviy musiqasini yig'ish va o'rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab keng miqyosda olib borilganligi va bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishganligi, va ularning orkestrda ishlashi bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug'ullanishganliklari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:**Xalq cholg'u ijrochilari xonandalik, musiqa idroki,gulligi,ochiq ovozda kuylash uslublari, an'anaviy musiqasi, etnograf, ekspeditsiyasiya, Cholg'ushunoslik.

O'zbek xalq cholg'ularining tarixi qadimdan o'rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o'tgan O'rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg'ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomini, mashhur musiqiy asarlar nomini uchratish mumkin. O'zbek an'anaviy musiqasini yig'ish va o'rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy

kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug'ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyngorn va F.Leyziklardir. Xususan, A.Eyngorn turli guruhlariga kiruvchi 36 ta xalq cholg'usidan iborat katalogni tuzgan. Xalq cholg'ularini yig'ish va o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919-yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo'lim ochiladi va u bu bo'limga rahbarlik qiladi. Bu bo'lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg'ulari kolleksiyasini yig'ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish bo'ldi.<sup>70</sup>

O'zbek musiqasini o'rganish tarixida keng ko'lamdagi olim, iste'dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir. V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o'tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o'rganishi uchun katta turtki bo'ldi. Musiqa nazariyasini o'rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning o'zbek xalq cholg'ulari rivoji tarixi bo'limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o'lchash ishlari katta qiziqish uyg'otadi.

1933 - yili Moskvada V.M.Belyayevning "O'zbekiston musiqiy cholg'ulari" nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg'uning tavsifi berilgan. Kitobda birinchi marta o'zbek xalq cholg'ulari ilmiy darajada tasniflangan. An'anaviy musiqa cholg'ularini o'rganish va ularda ijro etishni o'rgatish masalalari bo'yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg'ularni qayta ta'mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrotyans olib bordi. A.I.Petrotyans "Cholg'ushunoslik" kitobida xalq cholg'ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo'llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan.

Ancha yillar mobaynida ta'lim usuliyoti shakllandi. Xalq cholg'ularini qayta ta'mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko'nikmalari ishlab chiqildi. Cholg'uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o'tilishi o'quv repertuari ustida ko'p ishlashga, xalq cholg'ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi. Xalq cholg'u ijrochilariga ta'lim berishning usuliy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo'nalishda olib borildi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston davlat konservatoriyasi xalq cholg'ulari kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar chop ettirildi. Xalq cholg'ularida ijrochilik maktablari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, xalq cholg'ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo'yicha o'quv-qo'llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha musiqiy ta'limning boshlang'ich bo'g'ini uchun ta'lim asoslari shakllandi.

Har qanday talaba butun o'quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumta'lim va kasbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Chunki hammamizga ma'lumki, ko'pgina bitiruvchilarimiz o'z hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog'laydi. Bu esa psixologiya, pedagogika, usuliyot bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta'limning o'ziga xosligini ochib beruvchi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy usullar ishlab chiqilmagan.

Xalq cholg'u asboblari, ma'lumotlariga qaraganda juda qadim zamonlarda, eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Cholg'ulardan dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan, chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatidan bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa asboblari paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib, usul (ritm) ni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish va bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana bir oz o'tgach esa nay, naysimon hushtaklar, shiqildoqlar, chiltor (arfa) yasaldi. O'sha paytdagi nay cholg'u asboblari hozirgi zamon zamonaviy ko'p teshikli naylardan bir oz farq qilgan. Vaqt o'tib, ushbu cholg'ular takomillashib, ko'p yillik naylar yuzaga keldi, so'ngra torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'la boshladi. Ulardan saroy a'yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanilgan. Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'u asboblari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T., 1963.
2. Karomatov F. Uzbekskaya instrumentalnaya muzika. 1972.

<sup>70</sup> H.Nurmatov, N.Yo'ldoshev "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti" Toshkent-2007y., 5-b.

3. Axmedov M. Yunus Rajabiy. T., 1980.

4. Vizgo T.S. Muzikalniye instrumenti Sredniy Azii. M., - 1980.

5. Do'stov S. Cholg'u ijrochiligi va ansambli. O'quv qo'llanma. – Buxoro: “Durdona”, 2019. -

260 b.

6. Smenov A. Sredneaziatskiy traktat po muzike Dervish Ali (XVII veka), 1964.

7. Mansurov A. Cholg'ulashtirish bo'yicha amaliy namunalari va mashqlar. Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma nashriyoti. – T., 2007.

## МАҚОМ САНЪАТИ ТАЪЛИМИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ

И.И.Ахтамов

БухДУ мусиқа таълими кафедраси

ўқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада мақом ва бошқа анъанавий касбий мусиқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари, куйлаш органлари фаолияти, мутация (балоғат) даври хусусияти ва овозни асраш ҳамда тарбия қилишнинг психологик хусусиятлари ва мақом санъати орқали ёш авлодни юксак инсоний туйғулар руҳида тарбиялаш масалалари кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** анъанавий касбий мусиқий мерос, миллий мақом санъати туркумлари, Бухоро Шашмақоми, хоразм мақомлари, Фарғона-Тошкент мақом йўллари, мақомга асосланган дидактик кўшиқлар, “Мушқилот”, “Наср” .

Миллий маданий меросимизнинг ажралмас қисми бўлган Ўзбек мақом санъати асрлар оша авлоддан авлодга, устоздан шогирдга ўтиб, сайқал топиб келмоқда. Бухоро Шашмақоми, Хоразм мақомлари ва Фарғона-Тошкент мақом йўлларида таркиб топган ва мақомларимизнинг гултожи ҳисобланган “Шашмақом” ЮНЕСКО томонидан инсониятнинг номоддий маданий мероси сифатида тан олинди, унинг репрезентатив рўйхатига киритилган.

Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 ноябрда эълон қилинган “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан ҳозирга қадар бир оз қувватсизланиб бораётган, аслида, мумтоз мусиқа санъатимизнинг юксак авжи саналган мақом санъати том маънода ўзининг янги эътиборли замондаги иккинчи энг билад авжини бошлади.

Қарорда ўтган давр мобайнида мамлакатимизда мақом санъатини ўрганиш, ривожлантириш, нота ва магнит тасмаларига ёзиб олиш ҳамда уларни грампластинкалар шаклида тайёрлаб оммалаштириш борасида муайян ишлар амалга оширилганлиги қайд этилган. Шунинг билан бирга, “Айни вақтда миллий ўзинимизни англаш, маданиятимизни ҳар томонлама ривожлантириш, халқимиз, аввало, ёш авлодимизни юксак инсоний туйғулар руҳида тарбиялаш, унинг эстетик диди ва тафаккурини шакллантиришда мақом санъатининг кенг имкониятларидан етарлича фойдаланилмаяпти” деган танқидий хулосадан келиб чиқиб, бу йўналишда амалга оширилиши зарур бўлган асосий вазифалар кўрсатилган эди.

Қарор эълон қилингандан кейинги давр давомида Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуслари ва бошчилигида 2018 йил 6-10 сентябрь кунлари гўзал Шаҳрисабз замида илк бор катта мувофақият билан Халқаро мақом санъати ажумани ўтказилди, ҳозирги кунларда иккинчи анжуманга тайёргарлик кўрилмоқда Республика маркази ва вилоятларда “Мақом маказлари” (мақом ансамбллари ташкил этилди), Тошкентда Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти очилди, вилоятларда мақом санъати мактаблари ташкил топди, Республика ОТМ лари мусиқа таълими кафедраларида мақом санъати асослари бўйича дарс соатлари ажратилди, оммавий ахборот воситалари орқали мақом ва анъанавий касбий мусиқанинг бошқа жанрларини тарғиб қилиш ишларига эътибор кучая бошлади.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев айтганларидек “Бугунги замонда барча эзгу ниятли инсонларни бирлаштириш, ёшларни юксак гуманистик идеаллар руҳида тарбиялашда мусиқа санъатининг ўрни ва аҳамиятини ҳеч нарса билан ўлчаб, баҳолаб булмайди, десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз.